ПРОБЛЕМЫ И ОГРАНИЧЕНИЯ В ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ .....	844
<i>Джулибеков Нурмат Каршибекович, Жулиева Гулноз Юлдашевна</i>	
BIZNES JARAYONLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ASOSLARI .....	849
<i>Yoqubjanov Muminmirzo Nosirjon o'g'li, Erkinxojiyev Ismoiljon</i>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI .....	853
<i>Ernazarov Gulam Bekbaevich</i>	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI .....	860
<i>Mirzokirov Mirramizjon Mirxoshim o'g'li</i>	
ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	867
<i>Урунова Мафтуна Гайратовна</i>	
АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ЭКОНОМИКИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ .....	871
<i>Некова Фатима Борисовна</i>	
MINTAQA SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA KLASTERLASH VA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARINING AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	876
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI TIZIMINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY TASHKILY-IQTISODIY USULLARDAN FOYDALANISH .....	882
<i>Kayumov Z.O.</i>	
O'ZBEKISTONDA VALYUTA KURSINING SHAKLLANISHI VA UNING INFLATSIYA DARAJASIGA TA'SIRI MEKANIZMI.....	887
<i>Matrizayev Zafar Gulimboy o'g'li, Viqorjon Bahridinov Akbar o'g'li</i>	
МЕХНАТ BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI.....	892
<i>Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	897
<i>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</i>	
НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	901
<i>Мирзаев Кулмамат Джанзакович</i>	



ELEKTR UZILISHLARINING HUDUDIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI .....	906
<b>Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi</b>	
DAVLAT TRANSPORT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	911
<b>Uktamov Sarvar Atxam o'g'li</b>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПОДДЕРЖКИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАНАХ ЕС, США И ЯПОНИИ .....	915
<b>Газизова Эльмира Хамидовна, Мелибаева Гульнора Ачилевна</b>	
SANOATNI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILLARI .....	921
<b>O'zmanov Ixtiyor Ibragim o'g'li</b>	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	926
<b>Sherov Sanjar Radjabovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI STRATEGIYALAR ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	932
<b>Umurov Jasurbek Jamil o'g'li</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	936
<b>Raxmonov Abduxalil Rasulovich</b>	
INKLYUZIV TA'LIM XIZMATLARINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT, OTM VA IT INFRATUZILMA INTEGRATSIYASI.....	940
<b>Maxkamova Kamola</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUDJETLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (ENERGETIKA KORXONALARI MISOLIDA).....	944
<b>Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich</b>	



# AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUDJETLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (ENERGETIKA KORXONALARI MISOLIDA)

**Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich**

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi

E-mail: [jobir1144@gmail.com](mailto:jobir1144@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida budjetlashtirish mexanizmini takomillashtirish masalalari energetika korxonalarida misolida o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida budjetlashtirish tizimining iqtisodiy mohiyati, uning korxonada boshqaruvidagi o'rni hamda moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Energetika korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, kapital sig'imining yuqoriligi va davlat tomonidan tartibga solish omillari budjetlashtirish mexanizmini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, budjet ko'rsatkichlarining dinamik o'zgarishlari, ishlab chiqarish hajmi va tovar-moddiy zaxiralar holati tahlil qilinib, boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalits'o'zlar:** budjetlashtirish, aksiyadorlik jamiyati, energetika korxonalarida, moliyaviy rejalashtirish, boshqaruv samaradorligi, tovar-moddiy zaxiralar, dinamik tahlil, strategik boshqaruv, xarajatlarni optimallashtirish, investitsiya faoliyati.

**Abstract.** This article examines the improvement of the budgeting mechanism in joint-stock companies using the example of energy enterprises. The study analyzes the economic essence of the budgeting system, its role in enterprise management, and its importance in the efficient planning of financial resources. It is substantiated that the specific features of energy enterprises, including the continuity of the production process, high capital intensity, and government regulation, necessitate the improvement of budgeting mechanisms. Based on the research findings, the dynamics of budget indicators, production volumes, and the state of inventory are analyzed, and recommendations aimed at improving management efficiency are developed.

**Key words:** budgeting, joint-stock company, energy enterprises, financial planning, management efficiency, inventories, dynamic analysis, strategic management, cost optimization, investment activity.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования механизма бюджетирования в акционерных обществах на примере энергетических предприятий. В ходе исследования проанализированы экономическая сущность системы бюджетирования, её роль в управлении предприятием, а также значение в эффективном планировании финансовых ресурсов. Обосновано, что особенности энергетических предприятий, в частности непрерывность производственного процесса, высокая капиталоемкость и государственное регулирование, обуславливают необходимость совершенствования механизма бюджетирования. По результатам исследования проведён анализ динамики бюджетных показателей, объёмов производства и состояния товарно-материальных запасов, а также разработаны предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности управления.

**Ключевые слова:** бюджетирование, акционерное общество, энергетические предприятия, финансовое планирование, эффективность управления, товарно-материальные запасы, динамический анализ, стратегическое управление, оптимизация затрат, инвестиционная деятельность.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror faoliyat yuritishi, ularning moliyaviy natijalari va raqobatbardoshligini ta'minlash ko'p jihatdan samarali boshqaruv tizimiga bog'liq. Zamonaviy korporativ boshqaruv sharoitida moliyaviy resurslarni rejalashtirish, taqsimlash va nazorat qilish jarayonlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, budjetlashtirish mexanizmi aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruvning muhim instrumenti sifatida namoyon bo'lib, u korxonada faoliyatini tizimli rejalashtirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Energetika sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu soha sanoat, transport, qishloq xo'jaligi hamda ijtimoiy infratuzilma faoliyatining uzluksiz ishlashida muhim o'rin tutadi. Shu bois energetika korxonalarining moliyaviy va boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimal rejalashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda korxonalar boshqaruvining zamonaviy vositalaridan biri sifatida budjetlashtirish tizimi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u moliyaviy resurslarni rejalashtirish, nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim instrument hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida budjetlashtirish nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni prognozlash, balki resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va investitsion faoliyatni boshqarish imkonini ham beradi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab korxonalarda budjetlashtirish tizimi yetarli darajada mukammal tashkil etilmagan bo'lib, unda rejalashtirish va nazorat funksiyalari o'rtasida uzilishlar, ma'lumotlar sifati pastligi hamda tashkiliy mexanizmlarning yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi. Bu esa budjet ko'rsatkichlarining ishonchlilikiga salbiy ta'sir ko'rsatib, boshqaruv qarorlarining samaradorligini pasaytiradi.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida budjetlashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar — tashqi iqtisodiy muhitning o'zgaruvchanligi, bozor kon'yunkturasi, ichki boshqaruv tizimining rivojlanish darajasi hamda korporativ boshqaruv standartlarining joriy etilish holati — mazkur mexanizmni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi. Ayniqsa, yirik aksiyadorlik jamiyatlarida budjetlashtirish tizimi strategik va operatsion boshqaruvni uyg'unlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiyadorlik jamiyatlarida budjetlashtirish mexanizmini takomillashtirish masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, Charles T. Horngren, Srikant M. Datar va Madhav V. Rajan tomonidan boshqaruv hisobi tizimi doirasida budjetlashtirishning nazariy asoslari chuqur yoritilgan. Ushbu manbada budjetlashtirish korxonalar xarajatlarini rejalashtirish, nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy vositasi sifatida talqin etilgan.

Shuningdek, Colin Drury budjetlashtirish tizimining tarkibiy elementlari, uning boshqaruv tizimidagi o'rnini hamda samarali budjet tizimini tashkil etish tamoyillarini batafsil bayon qilgan. Muallif budjetlashtirishni strategik va operatsion boshqaruvni bog'lovchi muhim instrument sifatida ko'rib chiqadi.

Moliyaviy rejalashtirish va prognozlash masalalari Jack Alexander tomonidan keng yoritilgan bo'lib, unda budjetlashtirish jarayonini takomillashtirish uchun zamonaviy yondashuvlar, jumladan, prognozlash modellari va analitik usullardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan.

Amaliy jihatdan budjetlashtirish mexanizmini rivojlantirish bo'yicha Institute of Management Accountants tomonidan samarali budjet tizimini joriy etish bosqichlari, ichki nazorat va monitoring mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Ushbu tadqiqotda budjetlashtirish jarayonida ma'lumotlar sifati va tashkilot ichidagi kommunikatsiya muhim omil sifatida qayd etilgan.

Bundan tashqari, Chartered Institute of Management Accountants tomonidan ishlab chiqilgan "Budjetlashtirish va prognozlash amaliyotlari" hisobotida zamonaviy budjetlashtirish va prognozlash amaliyotlari, xususan, moslashuvchan budjetlar va prognoz tizimlarining afzalliklari ko'rsatib o'tilgan.

Mahalliy olimlardan B. Arifovning "Moliyaviy tahlil va korporativ boshqaruv" asarida O'zbekiston sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy boshqaruvni tashkil etish, jumladan, budjetlashtirishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Muallif korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishda moliyaviy rejalashtirish tizimining muhim rolini asoslab bergan.

Energetika sohasiga oid jihatlar esa International Energy Agency tomonidan chop etilgan "Energetika sektorining moliyaviy va investitsiya tendensiyalari" hisobotida o'z aksini topgan bo'lib, unda energetika korxonalarida investitsiya jarayonlari, moliyaviy resurslarni boshqarish hamda budjetlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.

Umuman olganda, yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, budjetlashtirish mexanizmi korxonalar boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, uni takomillashtirish uchun zamonaviy analitik yondashuvlar, prognozlash usullari hamda samarali ichki nazorat tizimlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning turli usullaridan kompleks foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usullari orqali aksiyadorlik jamiyatlarida budjetlashtirish tizimining nazariy asoslari va amaliy holati o'rganildi. Statistika hamda dinamik tahlil usullari yordamida energetika korxonalarida ishlab chiqarish hajmi va tovar-moddiy zaxiralar ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalari baholandi.

Taqqoslash usuli orqali turli aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati o'rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning budjetlashtirish tizimidagi xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida budjetlashtirish mexanizmining tarkibiy elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi o'rganildi.



Tadqiqotda iqtisodiy-matematik tahlil elementlari hamda prognozlash yondashuvlaridan foydalanilib, korxonalar boshqaruvida samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatlari asoslab berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Energetika korxonalarida budjetlashtirish tizimi nafaqat korxonaning moliyaviy faoliyatini rejalashtirish, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va investitsion faoliyatni boshqarish imkonini ham beradi. Shu bilan birga, energetika tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, kapital sig'imining yuqoriligi, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, energiya resurslariga bo'lgan talabning doimiy o'zgarib borishi hamda davlat tomonidan tartibga solish darajasining yuqoriligi budjetlashtirish jarayoniga alohida yondashuvni talab qiladi. Bunday sharoitda energetika korxonalarida budjet ko'rsatkichlarining shakllanishi va ularning vaqt davomida qanday o'zgarib borishini o'rganish boshqaruv samaradorligini baholashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda energetika korxonalarida ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar tarkibi, investitsiya yo'nalishlari hamda moliyaviy natijalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Ushbu o'zgarishlar energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi, modernizatsiya jarayonlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, shuningdek, boshqaruv tizimlarining takomillashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli energetika korxonalarida budjetlashtirish ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalarini aniqlash va ularni tahlil qilish korxonalar boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Korxonalarda budjetlashtirish jarayoni boshqaruvning asosiy vositasi sifatida strategik va operatsion qarorlar qabul qilishda keng qo'llaniladi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan yirik aksiyadorlik jamiyatlari — “Andijon dori-darmon” AJ, “O'zsvu'ta'minot” AJ, “Hududgazta'minot” AJ va “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ misolida ko'rish mumkinki, budjetlashtirish faqat moliyaviy natijalarni prognozlash emas, balki resurslarni samarali taqsimlash, boshqaruv javobgarligini kuchaytirish va aksiyadorlar manfaatlarini uyg'unlashtirish vazifasini ham bajaradi. Budjetlashtirish jarayonida tashkiliy tuzilma, ichki iqtisodiy omillar, tashqi bozor sharoitlari va zamonaviy boshqaruv modellaridan foydalanish imkoniyatlari birgalikda shakllanadi. Korxonalarda budjetlashtirishning tashkiliy mexanizmi rejalashtirishdan boshlab ijrogacha bo'lgan to'liq sikl sifatida ishlaydi va bunda bo'linmalar, moliya funksiyasi, budjet qo'mitasi yoki kuzatuv kengashi hamda ijro organlari rollari aniq bog'langan bo'ladi.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJda 2024-yilda elektr energiyasini yetkazib berish hajmi 70 048,5 mln kVt-soat qilib belgilangan. Daromadlar tarkibi esa filiallar tomonidan sotishdan sof tushum 42 545,8 mlrd so'm, jami daromad 43 147,9 mlrd so'm, sotilgan mahsulot va xizmatlar tannarxi 35 106,1 mlrd so'm, kutilayotgan sof foyda 175,7 mlrd so'm ko'rinishida prognoz qilingan. Hududiy elektr tarmoqlarida elektr energiyasi yetkazib berish hajmi dinamikasini tahlil qilish energetika korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, energiya iste'moli o'sishining umumiy tendensiyalari hamda budjetlashtirish asosida boshqaruv qarorlarini shakllantirish jarayonlarini baholashda muhim ahamiyatga ega. Elektr energiyasi yetkazib berish hajmining yillik o'zgarishlari korxonalar faoliyatining operatsion samaradorligi, energiya tarmoqlarining texnik holati, energiya iste'molining iqtisodiy faollikka bog'liqligi hamda energetika infratuzilmasining rivojlanish darajasini aks ettiradi.

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2017–2025-yillar davomida hududiy elektr tarmoqlari orqali yetkazib berilgan elektr energiyasi hajmida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatiladi.



1-rasm. Hududiy elektr tarmoqlarida elektr energiyasi yetkazib berish hajmi dinamikasi



Xususan, 2017-yilda 52,4 mlrd kVt-soatni tashkil etgan elektr energiyasi yetkazib berish hajmi 2024-yilga kelib 70,0 mlrd kVt-soatga yetgan bo'lib, bu davr mobaynida umumiy o'sish qariyb 33–35 foizni tashkil etganini ko'rsatadi. 2025-yil prognoziga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 72,4 mlrd kVt-soatga yetishi kutilmoqda. Mazkur holat mamlakatda elektr energiyasiga bo'lgan talabning ortib borayotgani, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, aholining turmush darajasi va energiya iste'molining o'sishi bilan izohlanadi.

Dinamik tahlil natijalariga ko'ra, 2017–2022-yillar oralig'ida elektr energiyasi yetkazib berish hajmining o'sish sur'atlari nisbatan barqaror bo'lib, o'rtacha 4–5 foiz atrofida shakllangan. Bu davr energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektr uzatish tarmoqlarini kengaytirish hamda energiya ta'minotining barqarorligini oshirishga qaratilgan investitsion dasturlar bilan bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, elektr uzatish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, yangi podstansiyalarni ishga tushirish hamda energiya yo'qotishlarini kamaytirishga qaratilgan texnik choralar energiya yetkazib berish hajmining barqaror o'sishini ta'minlagan.

2023–2024-yillarda o'sish sur'atlarining biroz sekinlashgani kuzatiladi. Bunday holat energetika tizimida ishlab chiqarish quvvatlarining ma'lum darajada chegaralanganligi, energiya iste'molining mavsumiy tebranishlari hamda ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, energiya ta'minoti tizimida modernizatsiya ishlari olib borilayotgan davrda ayrim texnologik uzilishlar yoki qayta taqsimlash jarayonlari ham o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, tasdiqlangan budjetlar bo'yicha dividend oqimlari ham rejalashtiriladi va bu aksiyadorlar manfaatlarini bilan bog'lanadi (masalan, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ portfeli bo'yicha 2024-yil davomida prognoz dividendlar jadvali tuzilgan). Shu tariqa, rejalashtirish–konsolidatsiya–tasdiqlash–ijro zanjiri korxonada budjetlashtirishining "tirik" boshqaruv mexanizmini yaratadi: dastlabki prognozlardan rasmiy tasdiqlashgacha bo'lgan yo'l ma'lumotga tayanuvchi va institutlashtirilgan, ijro esa reja-fakt tahlili, variatsiyalar va tuzatishlar orqali uzluksiz takomillanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar hajmi korxonada faoliyatining uzluksizligini ta'minlovchi muhim iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich korxonada ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari uchun zarur resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini, shuningdek, moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Aksiyadorlik jamiyatlarida tovar-moddiy zaxiralar holatini tahlil qilish orqali ularning budjet mablag'larini rejalashtirish, aylanma kapitalni boshqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifati haqida muhim xulosalarga kelish mumkin. Shu nuqtai nazardan, jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida "Hududgazta'minot" AJ hamda "Hududiy elektr tarmoqlari" AJda tovar-moddiy zaxiralar hajmining o'zgarish dinamikasini iqtisodiy, budjet boshqaruvi va menejment yondashuvlari asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

1-jadval. Aksiyadorlik jamiyatining tovar moddiy zaxiralari hajmi, ming so'm

Yillar	"Hududgazta'minot" AJ	"Hudud elektr tarmoqlari" AJ
2014	15870505	50354358
2015	17168005	52145124
2016	17456888	55465987
2017	19549766	58455124
2018	18875124	60125489
2019	19125468	69948455
2020	19789154	4330166
2021	22435750	18234154
2022	4213373506	91708384
2023	5690776296	1417409867
2024	6198233500	1688249598
2025	7218421621	1754256512

2014–2025-yillarda "Hududgazta'minot" AJ va "Hududiy elektr tarmoqlari" AJning tovar-moddiy zaxiralari hajmi sezilarli o'zgarishlar ko'rsatgan. Dastlabki 2014–2019-yillarda har ikki korxonada zaxiralar barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lgan. "Hududgazta'minot" AJda zaxiralar hajmi 15 870 505 ming so'mdan 19 125 468 ming so'mga oshib, taxminan 20 foizlik o'sish bilan asta-sekin rivojlanishni ko'rsatgan. Shu davrda "Hududiy elektr tarmoqlari" AJda zaxiralar 50 354 358 ming so'mdan 69 948 455 ming so'mga yetib, nisbatan yuqori sur'at bilan o'sgan. Bu davrdagi o'sish korxonalarda resurslarni ehtiyotkorlik bilan shakllantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz ta'minlash va budjet ko'rsatkichlarini barqaror asosda rejalashtirish bilan izohlanadi.




2020–2021-yillarda esa “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ zaxiralari keskin pasayish bilan ajralib turdi: 2020-yilda 4 330 166 ming soʻmga tushib, 2021-yilda 18 234 154 ming soʻmga qaytdi. Bu pasayish, ehtimol, maʼlumotlarni qayta konsolidatsiya qilish, resurslarni optimallashtirish yoki budjet hisobotlarini takomillashtirish natijasi bilan bogʻliq. Shu bilan birga, “Hududgaztaʼminot” AJda zaxiralar hajmi barqaror oʻsishda davom etib, 22 435 750 ming soʻmga yetdi, bu esa gaz taʼminoti korxonasi resurs siyosati ehtiyotkor va nazorat ostida olib borilganini koʻrsatadi.

2022-yildan boshlab har ikki korxonada zaxiralar hajmi keskin oshdi. “Hududgaztaʼminot” AJda bu koʻrsatkich 22 435 750 ming soʻmdan 4 213 373 506 ming soʻmga yetdi, yaʼni deyarli 188 baravar oʻsish kuzatildi. Shu bilan birga, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda zaxiralar 91 708 384 ming soʻmga yetib, taxminan besh baravar oʻsish qayd etildi. Bu oʻsish strategik resurslarni shakllantirish, kapital xarajatlarni rejalashtirish va budjet tizimini takomillashtirish bilan izohlanadi. Ayniqsa, “Hududgaztaʼminot” AJdagi keskin oʻsish korxonaning resurs siyosatida yirik strukturaviy oʻzgarishlar amalga oshirilganini koʻrsatadi.

2023–2025-yillarda zaxiralar hajmi barqaror oʻsishda davom etdi. “Hududgaztaʼminot” AJda 5 690 776 296 ming soʻmdan 7 218 421 621 ming soʻmga yetdi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda esa 1 417 409 867 ming soʻmdan 1 754 256 512 ming soʻmga oshdi. Bu davrda zaxiralarning oʻsishi ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz taʼminlash, energiya va gaz resurslariga boʻlgan talabni qondirish hamda budjet koʻrsatkichlarini amalga oshirish bilan bogʻliq.

Tahlil shuni koʻrsatadiki, 2014–2019-yillarda zaxiralar hajmi barqaror va nazoratli oʻsgan boʻlsa, 2020–2021-yillarda “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda qisqa muddatli pasayish kuzatilgan. 2022-yildan boshlab esa ikkala korxonada zaxiralar hajmi keskin oshib, resurslarni shakllantirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish jarayonining kuchayganini bildiradi. Shu nuqtai nazardan, zaxiralar hajmini tahlil qilish budjetlashtirishning muhim indikatorlaridan biri boʻlib, korxonada boshqaruvi va moliyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, energetika va gaz tarmoqlarida zaxiralar hajmi ishlab chiqarish uzluksizligi, resurslarni oqilona taqsimlash va budjet rejalashtirish tizimi bilan chambarchas bogʻliq.

Mazkur korxonada 2014–2019-yillar oraliqʼida zaxiralar hajmi 50 354 358 ming soʻmdan 69 948 455 ming soʻmga qadar asta-sekin oshib borgan. Bu davrda oʻsish nisbatan barqaror boʻlib, elektr tarmoqlari infratuzilmasini uzluksiz saqlash uchun zarur ehtiyot qismlar, materiallar va texnik resurslar tizimli ravishda shakllantirilganini koʻrsatadi (2-rasm).



2-rasm. “Hudud elektr tarmoqlari” va “Hududgaztaʼminot” AJ larning tovar-moddiy zaxiralarni oʻzgarishi holati<sup>1</sup>

Tahlil davrining boshida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning tovar-moddiy zaxiralari “Hududgaztaʼminot” AJga nisbatan ancha yuqori boʻlgan. Masalan, 2014-yilda elektr tarmoqlari korxonasi zaxiralari gaz taʼminoti korxonasi nisbatan qariyb uch baravar koʻp boʻlgan.

Leikin keyingi yillarda, ayniqsa 2022-yildan boshlab, vaziyat oʻzgargan. “Hududgaztaʼminot” AJda zaxiralar hajmi juda yuqori surʼatlarda oshib, 2025-yilga kelib 7,2 trln soʻmga yaqinlashgan. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda esa bu koʻrsatkich 1,75 trln soʻm atrofida boʻlgan.

1 Korxonada maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi



Demak, davr oxiriga kelib gaz ta'minoti korxonasi moddiy resurslarni shakllantirish bo'yicha ancha yirik hajmga chiqqan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aksiyadorlik jamiyatlarida budjetlashtirish mexanizmi korxonalar boshqaruvining muhim instrumenti hisoblanib, u moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish, nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim rol o'ynaydi. Energetika korxonalari misolida o'tkazilgan tahlillar ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini, biroq ayrim davrlarda o'sish sur'atlarining sekinlashuvi kuzatilishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, tovar-moddiy zaxiralar hajmining keskin oshishi korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va budjetlashtirish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Aniqlanishicha, mavjud budjetlashtirish tizimlarida rejalashtirish va nazorat funksiyalari o'rtasidagi uzilishlar, ma'lumotlar sifatining yetarli emasligi hamda tashkiliy mexanizmlarning to'liq shakllanmaganligi boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlarida budjetlashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, prognozlash usullarini rivojlantirish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish hamda strategik va operatsion rejalashtirishni o'zaro integratsiyalash zarur.

Umuman olganda, budjetlashtirish mexanizmini takomillashtirish aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli strategik rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Chartered Institute of Management Accountants. Budgeting and Forecasting Best Practices. – Research Report. – London, 2020. – P. 10–18.
2. International Energy Agency. Energy Sector Financial and Investment Trends. – Paris, 2022. – P. 25–40.
3. Institute of Management Accountants. Implementing Effective Budgeting Practices. – Management Accounting Journal, 2019. – P. 15–22.
4. B. Arifov. Moliyaviy tahlil va korporativ boshqaruv. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020. – 55–92-b.
5. Jack Alexander. Financial Planning & Analysis and Performance Management. – Wiley, 2018. – P. 88–120.
6. Charles T. Horngren, Srikant M. Datar, Madhav V. Rajan. Horngren's Cost Accounting: A Managerial Emphasis. – Pearson Education, 2018. – P. 45–78.
7. Colin Drury. Management and Cost Accounting. – Cengage Learning, 2015. – P. 102–135.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>